

FARZAND ISTIQBOLIDA TARBIYANING O‘RNI.

Jizzax viloyati forish tumani

16-maktab psixologi

A.O‘rolboyev

Annotatsiya: Hozirgi kundagi yangilanayotgan jamiyatning talabi o‘zining erkin fikriga ega bo‘lgan har qanday sohada o‘zining sog‘lom raqobatini taklif eta oladigan yoshlarga bo‘lmoqda, jamiyat talabini qondira oladigan farzandlarni tarbiyalash esa biz kattalarning qo‘lida aslida, agarda farzand o‘z fikrini erkin bildira olmasa o‘z ehtiyojlari haqida ota onasi bilan o‘rtoqlasha olmasa yoki ota onasiga aytsa-yu ota onasi tomonidan unga noto‘g‘ri munosabat ko‘rsatilsa bolada shakllanayotgan shaxsiyatiga shikast yetishi bola esa jamiyat uchun portlamay qolgan va qachondir portlashi muqarrar bo‘lgan dinamitga aylanish ehtimoli yuqori

Kalit so‘zlar: yangilanayotgan jamiyat,erkin fikr,shaxs,shakllanish bosqichlari,o‘smirlik,hayotiy tajribalar,tarbiya

Kirish

Shaxs haqida ta‘rif berilganda ,rus psixologi S,Y Rubinshteynning fikrlariga to‘xtalmoq kerak. Olimning takidlashicha,odam o‘zidagi takrorlanmas hususiyatlariga ko‘ra individualdir , odam o‘z atrofida qilargalarga ,borliqqa bo‘lgan ongli munosabati , uning biror bir faoliyat bilan shug‘ullanishi esa uning shaxs ekanligidan dalolat beradi.har qanday shaxs hayoti davomida shakllanish bosqichlarini boshdan kechiradi. Yani bola bo‘ladi, agarda yosh davrlaridan eng murakkab yosh davri o‘smirlik deb oladigan bo‘lsak . Barcha ota-onalar o‘smirlik davrida bolaning kayfiyati o‘zgaruvchan bo‘lib qolishini biladilar. Ba‘zan ota-onalar o‘smir bilan qanday muloqot qilishni bilmay o‘zlarini ojizliklarini his qiladilar. Ular har qanday yo‘llar bilan farzandlariga ta’sir o‘tkazishga harakat qiladilar va bunda hattoki salbiy yo‘llarni ham qo‘llaydilar. Masalan, ko‘pincha

ular o‘smirga baqirib yuborishadi yoki uni turli usullar bilan jazolashadi. Natijada o‘zaro munosabatlar yanada yomonlashadi. Shaxsiyati shakllanib borayotgan bolaga bu jarayon yomon ta‘sir ko‘rsatadi va tushkunlikka tushib qoladi bu jarayon Maktabdagi darslariga ham tasir qilmay qolmaydi. oilalardagi farzand tarbiyasini olib borishdagi eng katta hato ularga kerakli vaqtda kattalardek kerakli joyda bolalardek munosabat olib bormaslik hisoblanadi, ularning fikrlarini inobatga olmaslikdir. misol uchun bola oilada kattalar oldida o‘z fikrini ochiq oydin ifoda etib bera olsa kattalar tomonidan ham bolaning bildirgan fikriga hayrihohlik sezsa kelajakda bu boladan yaxshi natijalar kutiladi chunki: bolalar bunday oilada fikrini bildirish qobiliyatini shakllantirib o‘sadi noto‘g‘ri fikr aytib qo‘yishdan cho‘chimaydi yoshi kattalashgandan keyin hayotiy tajribalari ortgan sayin bola aytilishi lozim bo‘lgan yoki aytilishi lozim bo‘lmagan gaplarni ajrata olishni boshlaydi natijada o‘zining shaxsiy fikriga ega bo‘lgan o‘z fikrini qo‘rqmasdan ayta oladigan vaqti kelsa o‘z fikrini himoya qila oladigan barkamol shaxs sifatida shakllanadi.

Bolalarni hali shakllanmasdan ijtimoiy muhitga kirmasligidan oilaviy sharoitda unga to‘g‘ri tarbiya berishimiz kerak bo‘ladi. Bola kichkinaligida berilgan tarbiya ham huddi bilim kabi naqsh singari muhrlanib qoladi. "Tarbiya -inson kamolotiga ta‘sir qiluvchi tashqi va eng muhim omil hisoblandi" Oilada qanday tarbiya ko‘rgan bo‘lsa bolalar bu tarbiyani ijtimoiy muhitda ham ko‘rsatdi. Oila bu jamiyatning bir bo‘g‘ini hisoblanadi. Oilaviy muhit yaxshi bo‘lgandagina jamiyat rivojlandi. Shuning uchun hozirgi kunda prezidentimiz oilaga, oilaviy sharoitga alohida e‘tibor bermoqda. Har bir ota-ona kelajakda ma‘naviy sog‘lom farzandi bo‘lishini hohlasa, avvalo oilaviy sharoitini yaxshilashi, sog‘lom oilaviy sharoitni yaratishi kerak. Sog‘lom farzand sog‘lom sharoitda voyaga yetadi. Ota-ona bola qiziqishlariga alohida e‘tibor qaratishi, uning hohishini bajarishi kerak. Bolaning maktabgacha yoshidagi bo‘lgan qiziqishlari uning kelajagi uchun poydevordir. Bola bog‘cha yoshida qiziqishlar uyg‘onadi har bir ota -ona qiziqishlarni to‘g‘ri baholab qiziqishlarni rag‘batlantirishi, bolani qiziqishi tomon yo‘naltirishi kerak. Buyuk sportchilarning hayotiga nazar soladigan bo‘lsak hozir shug‘illanib kelayotgan sportlariga bog‘cha yoshidan qiziqib ota-onasi to‘g‘ri yo‘naltirgani sabab shunday yutuqlarga erishgan. Maktabgacha yosh davri bolalar hayotida iste‘dodlar uyg‘onadigan

davrdir. Oilada sogʻlom muhit deganda ota -ona oʻrtasidagi iliqlik munosabatlar tushuniladi "Qush inida koʻrganini qiladi" degan naql bor ota-onalar bir biriga yaxshi munosabatda boʻlar ekan bola voyaga yetib ota -onasi yaratgan oilaga oʻxshagan oila yaratadi. Oilada bola qiziqishlari va uning hohishlarini vaqtida qondira bilish kerak, ularga vada berib vadani vaqtida bajarsa bola ongida ijobiy gʻoyalar paydo boʻladi. Bola hohishlarini aytgan paytida qondirish salbiy oqibatlariga ham olib keladi. Afsuski bugungi kunda juda koʻp oilalarimiz gʻarb mamlakatlaridan andoza olib oilasini tartibda, bolalarini gʻarbonek tarbiya bilan voyaga yetkazmoqda. Oilada mehr muhabbat ota-onalar va farzand oʻrtasidagi doʻstona suhbat davralari yoʻq boʻlib ketmoqda. Eng muhimi oilada axloqiy tarbiya paydo boʻladi. Fitrat oʻzining asarlarida farzand tarbiyasi aqliy tarbiyada aqliy tarbiya, badan tarbiya va axloqiy tarbiya -ning oʻrnining muhimligini takidlaydi. Mazkur uch tarbiyaning eng muhimi axloqiy tarbiya hisoblanadi. Oʻzingiz xohlaganingizcha bolaning aqliy va badan tarbiyasi bilan mashgʻul boʻlishingiz mumkin va qoʻlingizdan kelguncha uni dono va baquvvat qiling. Lekin axloqiy tarbiya talab darajasida boʻlmasa aqli va jismoniy kuchini oʻzi yoki atrofdagilar zarariga ishlatadi.

Bola tugʻilganida hayvoniy hislatlar bilan tugʻiladi, huddi hayvon kabi boʻladi ijtimoiy muhit bolani rivojlantiradi shaxs sifatida shakllantiradi. Hayvoniy hislatlardan yiroqlashib shaxs boʻlib shakllanadi. Ijtimoiy muhit bola rivojlanishi uchun muhim boʻlganligi sababli juda koʻp olimlar ijtimoiy muhitning bola rivojlanishiga taʼsirini oʻrganib chiqadi. Bixeviorizm asoschilari N. Miller va D. Dollard hisoblanadi. Ular bola hayotida ijtimoiy muhitning roʻlini yuksak baholab bolani shakllantiruvchi asosiy qism deb biladi. Olimlar bola ijtimoiylashuvi uchun ota-onaning roʻlini yuksak baholab ularning alohida vazifalari borligini aytadi. Bola ijtimoiylashuvida ota -onalarining vazifasi bolani ovqatlantirish bolada agressiyaning namoyon boʻlishi, uning jinsiy indentifikatsiyasi va meʼyoriy xulq atvorlarining boshqa xususiyatlari bilan bogʻliq boʻlgan yosh davriga oid muammolarni bartaraf qilish kabi vazifalar yuklatilgan boʻladi. Bola ijtimoiylashuvi murakkab jarayon boʻlganligi uchun ota -ona koʻmagi kerak. Bola ijtimoiy muhitga kirganida uning tarbiyasi yurish -turishi odamlarga munosabati hattoki oilasiga munosabati ham oʻzgaradi. Agressiyaning moyillashtirish sharoitlarini oʻrganish ijtimoiylashuv

nazariyasining tayanch mavzularidan biridir. Ijtimoiylashuv jarayoni favqulotda keng va ko'p qirrali jarayondir. Ijtimoiylashuv jarayoni onson bo'lishi uchun oilaviy sharoit ham juda muhimdir bola xulqi yaxshi bo'lsa ijtimoiylash ham onsonlashadi bolarning turli davralarga erkin kirib turli odamlar bilan munosabtgga kirishishi onson bo'ladi. Bunday jarayonda hulk albatta muhimdir. Bolaning ijtimoiy muhitga kishishida ota -ona juda e'tiborli bo'lishi kerak. 'Barkamol shaxsni shakllantirish ,kelajagimiz poydevori bo'lgan bolalarni to'g'ri tarbiyalamog'imiz kerak.

Bola rivojlanishida qaysi tomonlama bo'shliq bo'lsa uni kerakli ma'lumot va ota -onaning to'g'ri maslahati bilan to'ldirish kerak. Zero kelajak yoshlar qo'lida.

Xulosa

Har qanday bolaga fikr erkinligi berilmog'i kerak shundagina yashab turgan jamiyatimiz tanazzulga yuz tumaydi kelajak avlod hayoti yaxshi tomonga o'zgaradi,zeroki har qanday shaxs jamiyat hayotida muhim o'rin tutadi. Agar oilalarda farzand tarbiyasiga etibor berilmas ularning aytadigan fikrlari ota ona tomonidan inobatga olinmas ekan farzandlarimizda mustaqil fikrlash tuyg'usi yo'qolib boraveradi,ota onalari tomonidan bolaga bildirilgan noto'g'ri munosabat bostirilmaydi qachondir .Isyon ko'rinishida yuzaga chiqadi,bu isyonni bostirish esa ancha qiyinchilik tug'dirishi bazi hollarda esa bostirish iloji bo'lmasligi ham mumkun bunday hollarda bolalar tomonidan turli hil jinoyatlar amalga oshiriladi ya'ni jamiyat tomonidan o'rnatilgan qonun qoidalarga ko' r ko'rona amal qilmaslik holatlari kuzatiladi.Bunday shaxslarda vaqt o'tgan sayin shaxsiyatiga putur yetishni boshlaydi

"Tarbiya bizlar uchun yo hayot-yo mamot, yo najot – yo halokat yo- saodat yo falokat masalasidir"

A.Avloniy

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
2. Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari (Shavkat Mirziyoyev Miromonovich)
3. Z.T. Nishanova "Rivojlanish psihologiyasi. Pedagogik psihologiya".

4. Maxsus psixalogiya Mo‘minova , Amirsaidova , Mamarajabova, Xamidova
5. Axmadjon Meliboyev o‘zingni o‘zing boshla
6. Odob- axloq kitobi jadid namoyondalari